


**“TASDIQLAYMAN”**  
**Kambag'allikni qisqartirish**  
**va bandlik vazirligi huzuridagi Oila**  
**va xotin-qizlar qo'mitasi raisi**  
  
**O.Parpibayeva**  
**2023-yil “\_\_” aprel**

**O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi**  
**huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi O.Parpibayeva rahbarligida 2023-**  
**yil 27-aprel kuni ZOOM orqali o'tkazilgan yig'ilish**  
**7-son BAYONI**

**Raislik qiluvchi: O.A.Parpibayeva – Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi**

**Qatnashdilar: Oila va xotin-qizlar qo'mitasi markaziy apparat**  
**va hududiy bo'linmalar xodimlari**

**KUN TARTIBI:**

**O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining**  
**2023-yil 27-apreldagi 01/00-03/20-2923-sonli xati ijrosini tashkil etish**

**Yig'ilish raisi tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni**  
**qisqartirish va bandlik vazirligining mazkur xati orqali Vazirlik tassarrufidagi**  
**hududiy bo'linmalar xodimlari o'rtasida qonunbuzilish holatlarini ro'y berayotgani,**  
**eng achinarlisi rahbar xodimlar tomonidan korrupsiyaviy holatlarni sodir etilishiga**  
**yo'l qo'yilayotgani aytib o'tildi.**

Jumladan, Sirdaryo viloyati Guliston shahar Aholi bandligiga ko'maklashish  
markazi direktori, Jizzax viloyati Bandlik boshqarmasi mas'ul xodimi, Qashqadaryo  
viloyati Yakkabog' tumanidagi mahalla hokim yordamchisi, Shaxrisabz tumanidagi  
mahalla hokim yordamchisi o'z vakolatini suiiste'mol qilgan holda egallab turgan  
lavozimidan g'arazli maqsadda foydalanib, korrupsiyaviy jinoyatlarga qo'l urgani  
haqida ma'lumot berildi.

Kelgusida shu kabi salbiy holatlar takrorlanmasligi, ularning oldini olishni va  
xodimlar o'rtasida qonunchilikni yanada mustahkamlashni ta'minlash maqsadida  
bir qator vazifalar belgilab olindi.

Yig'ilishda ta'kidlanganlarga asoslanib **quyidagilar belgilansin:**

**1.** Yuqorida ta'kidlab o'tilgan salbiy holatlar to'g'risida kelib tushgan  
O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining  
2023-yil 27-apreldagi 01/00-03/20-2923-sonli xati Qo'mita tizimidagi hududiy

bo'linmalarga yuborilsin va barcha bo'g'indagi xodimlar o'rtasida atroflicha muhokama qilinsin.

2. Hududiy bo'linmalarda, nomzodlarni ishga qabul qilish jarayonida



manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymaslik jarayonlari qattiq nazoratga olinsin.

3. Viloyat va tuman-shahar hududiy bo'linmalari xodimlari, shuningdek, mahalladagi xotin-qizlar faollari tomonidan funksional vazifasi va qonun osti hujjatlar talablariga qat'iy amal qilishlari haqida tushuntirish va targ'ibot tadbirlari olib borilsin, ayniqsa kam ta'minlangan oila va ijtimoiy yordamga muhtoj xotin-qizlarga subsidiya, kredit va ularning sog'ligini tiklash uchun mablag' ajratishga taklif berish, uy-joylarini ta'mirlash yoki uy-joy bilan ta'minlashga takliflar kiritish jarayonida manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymasliklari uchun monitoring va nazorat qilish ishlari kuchaytirilsin.

4. Qo'mita tizimi xodimlari tomonidan hududlarga xizmat safariga borilganda, mazkur yo'nalishdagi ishlarga ham alohida e'tibor qaratishlari yo'lga qo'yilsin.

5. Bayonnomada belgilangan vazifalar ijrosini to'liq ta'minlash maqsadida bayonnoma nusxasi Qo'mita va uning hududiy bo'linmalari xodimlari e'tiboriga yetkazilsin.

6. Belgilangan mazkur chora-tadbirlar ijrosini nazorat qilish Qo'mita bosh mutaxassisi (B.Saidqosimov) zimmasiga yuklatilsin.

**Bayonlashtirdi:**

Qo'mita bosh mutaxassisi

B.Saidqosimov

2023-yil "14" aprel